

## QORAQALPOQ TILIDAGI SUYUQ TAOM NOMLARI

*Esbergenova Risg'ul Begdullaevna*

*O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Qoraqalpoq 'iston bo 'limi  
Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti tayansh doktoranti*

**Annotaciya:** ushbu maqolada qoraqalpoq tilidagi suyuq taom nomlari leksik jihatdan analiz qilingan.

**Kalit so'zlar:** donli, xamirli, suyuq taomlar, sut mahsulotlari.

Qoraqalpoq taomlarining asosiy bo'limi donli , sutli , go'shli va xamirli mahsulotlardan tashkil topgan. Shu nuqtai nazardan biz qoraqalpoq tilidagi suyuq taomlarning nomlarini quyidagicha ajratdik:

1. Xamirli suyuq taom nomlari
2. Don mahsulotlaridan tayyorlangan suyuq taomlar
3. Sut mahsulotlari nomlari

**1. Xamirli suyuq taom nomlari** Taomning bu toifasiga *kesbas, pelmen, siqpan, mayda g'urtik, 'uzben, julmay, lagman* singari taomlarni kiritish mumkin.

Kesbas//unashi (ugra osh) – bug'doy unidan tayyorlanib, xamiri yuqqalab yoyiladi va yingishga qilib kesiladi. Qoraqalpoq tilining qibla dialektida bu taom una deb ataladi, orqa dialekt vakillari esa unashi, kesbas deb ataydi. Shimboy, Taxtako'pir, Qarao'zek, Xo'jeli tumanlari vakillari *kaspas / unasi/ unashi* deb nomlashadi. Taomga aralashtiradigan masalig'iga ko'ra s'utli unashi, qatıqlı unashi, qabaqlı unashi, tovuq solingan unashi deb atalgan turlari mavjud. Hozirgi vaqtda tovuq solingan unashidan boshqa turlari ko'pincha tayyorlanmaydi, kesbas//unashi o'rniga tayyor lapcha solinadi, uning tayyorlanishi ham kesbas//unashi tarizli bo'ladi. Unashi Mahmud Qashqariy asarida «Sarmachug'» deb nomlangan. Bir turdagi «sarmachug' - xamirni maydalab, kesib tayyorlanadi. Buni kasal va kasalga uxshashlar ishadi [112,478]». Vaqt o'tishi bilan qoraqalpoq tiliga boshqa tillardan so'zlar kirib keldi , qoraqalpoq pazandashiliga xam bir qancha taom nomlari qo'shildi . Misol uchun, *lagman, pelmen, lapsha*.

Lagman – yingichga shaklda cho'zilgan xamirga alohida go'shtni qovirib pishiriladigan taom. Taom ikki turda tayyorlanadi: chorva lagman va qovurilgan lagman.

Pelmen – xamir bilan maydalangan go'shtni qo'shib pishiriladigan taom.

Bundan tashqari, hozirgi vaqtda uy bekalari tomonidan tayyorlanmay, unutiloyatgan taomlar ham bor: *julmay, uzben, siqpan*.

Xamirli suyuq taomlar nomiga jo'huri unidan tayyorlanadigan siqpan taomi kiradi. Siqpan (siqman)– moshovaning ustiga jo'huri unidan xamir qorilib uni qo'l yordamida siqib, barmoqlar orasidan o'tqazib tayyorlanadigan taom turi. Bugungi kunda bu taomlar

deyarli tayyorlanmaydi . Uni Ellikqa’la vakillari barmoqda siqmasdan xamirni teshik kapgirdan o‘tkazgan holda tayyorlashgan.

Julmay bug‘doy xamirin kesmasdan, qazonga kishik shakilda xamirni uzib ochqatig‘iga ayron bilan qurt solinadigan suyuq taom.

Ўзben- jo‘ho‘ri unining xamirin uzib-uzib qazonga solinadigan ayron yoki qatiq bilan ishildigan taom tu‘ri.

**2. Don mahsulotlari bilan tayyorlangan suyuq taomlar.** Don mahsulotlari gurush,bug‘doy,tariq, loviya, mosh h.t.b. Gurushdan tayyorlanadigan suyuq taomlar *sút burish,góje, mashaba, jarma* va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Sút burish (sutbirinch)- gurish sutining o‘ziga qaynatib pishiriladigan suyuq taom turi. Taom ishiga qavoq, achchiq murch solinishi mumkin. Bu taom ko‘pincha qishda gripp bo‘lganda tayyorlanadi. Sut gurush mahsuloti bilan birga mosh, loviya, jo‘hari kabi donli mahsulotlar bilan xam birga tayyorlanadi.

Go‘je (go‘ja)- jo‘hori, gurush, sok va boshqa donli mahsulotlardan tayyorlanadigan suyuq taomning bir turi. Ochqatigiga qatiq, sut, ayron qo‘chib, ko‘pincha yoz mavsumida pishiriladigan yengil taom. Ishidagi qo‘shiladigan mahsulotiga ko‘ra bir nechta turi mavjud: *sút góje, qatiq góje, ayranli góje*. Bu taomning Navro‘z bayrami ushun tayyorlanadigan turi Nawrız góje deb nomlanib, unga yetti turli don mahsuloti qo‘shiladi.

Máshaba (moshova)- moshni suvga qaynatib, sut, qatiq aralashtirib istemol qilinadigan suyuq taom turi. Bu ot «dukkakli o‘simlikning yumoloq, to‘q yashil ranli doni» manosini anlatadigan mosh oti va «suv» manosini anlatadigan ob otidan tuzilgan moshob otiga –a qo‘shimshasini qo‘shib hosil qilingan bo‘lib o‘zbek tiliga b tovushini v tovushiga almashtirib olingan<sup>1</sup>.

Jarma (krupa)-jo‘horini yorib tayyorlanadigan suyuq taom turi.

Sumelek(sumalak)- suyuqroq taomning turi. Bug‘day, arpani ko‘gartib, uni keliga yoki myasrovkadan otkazib suviga un aralashtirib, bir kun davomida qaynatib tayyorlanadigan suyuqroq taom turi. Hozirgi paytda arpadan emas , balki bug‘doy kokining maydasidan pishiriladi. Ushbu taomlar faqat bahorda tayyorlanadi va bugungi kunda ushbu taomni tayyorlash ko‘pchilik uchun odat tusiga kirdi

**3. Sut mahsulotlari nomlari.** Qoraqalpoq xalqi ham boshqa xalqlar kabi mol chorvashiligidan natijali foydalangan. Qaramol, qo‘y-eshki, ot va tuya go‘shlari bilan birga ularning sutidan ham ko‘p turdagi oziq-ovqatlar, ishimliklar tayyorlangan. Sut va sut mahsulotlari qadimgi davrlarda oziq-ovqat sifatida, shuningdek kasalliklarni davolashda ishlatilgan. Bu turdagi xalq orasida“ Túye shubatı mıń dártke dawa” singari hikmatli so‘zlar bor. Qoraqalpoq aholisi sut va sut mahsulotlaridan samarali foydalangan. Sut mahsulotlari aholi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek , tilning so‘z boyligini

<sup>1</sup> Нурова Ю. Ўзбек халқ паремаларининг этнолингвистик хусусиятлари . Дисс...канд.филолог.фан. Бухоро, Б.93. 2022.

oshirishda muhim o'rin tutadi. Sut so'zi umumiy turkcha so'z. Qadimgi turk yozuvi yodgorliklarida suyt [2,518], qadimgi kipchak yodgorliklarida : qaraym, qozoq, qoraqalpoq tillarida suyt; ozarbayjon tilida syud; tatar tilida set; chuvach tilida sôt [3,305]. Hazirgi turkiy tillarda sut so'zi fonetik variantlarda uchraydi: qozoq , qirg'iz tillarida syut; o'zbek tilida sut ; turkman tilida syut.

Qatiq (qatiq)- sutdan tomizg'i solib ivitib tayyorlangan parxez mahsulot. Bu so'z turkiy tillarda ozarbayjon tilida - gatyg , o'zbek tilida - qatiq , qumiq tilida - qatik «sir », turkman tilida - gatik shaklidagi fonetik variantlarda qo'llaniladi.

Uytqi (oqliq) – pishirilgan sutni ivitish ushun unga solinadigan ozgina qatiq, tomizg'i. Ayran (ayron) – qatiqning qub(guppyi) da moyi ajratib olingandan song qolgan suyuq qismi. Bu ot qadimgi turkiy tilda ayır-felidan-(a)n qo'shimchasi bilan yasalgan. Qo'shimcha qo'shilgandan keyin ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qolgan, qaraqalpoq tilida so'z boshlanishidagi a unlisi ä unlisiga, ikkinchi bo'g'indagi a unlisi ä almashgan; ayır+an= ayıran. Bu so'z asli sutdan yog' ayirib olinganidan keyin qoladigan suyuqlik. Ayronning suvi maxsus tayyorlangan xaltadan o'tkazilib, suzma tayyorlanadi.

Qıımız (qimiz)– biya sutidan ashitib tayyorlangan ichimlik. Biya sutini chayqatish, shopirish bilan tayyorlanadigan shifobaxsh ichimlik. Bu so'z turkman tilida gımız, o'zbek tilida qimiz, qazaq tilida qımız fonetik variantlarda qollaniladi. Qazoq shoiri Jambıl «kasalga shifo sog' adamga quvvat, darmon-qımız» deganidek, qımız dartga shifo, tanaga kuch. Qımız- alohida ishtaha oshadigan yoqimli hidli ichimlik. Xalqimizning yig'in mavsumiga bog'liq qimizni bir neshta turga ajratash mumkin: uwiqimiz, yozgi qimiz, kuzgi qimiz, qishgi qimiz va sariq qimiz .

Shalap (ayron)– qatiqqa suv aralashtirib tayyorlanadigan ichimlik.

Jawdıń qılıshın suwırıp qınaptan,

Elim júda boldı ayran, shalaptan, («Qırıq qız»).

Xulosa shuki, biz qaraqalpoq tilidagi suyuq taom nomlarini leksik analiz qilish movaynida qaraqalpoq pazandashiligida yangidan kirib kelayotgan taomlar va oldin tayyorlangan ammo hozirda umuman tayyorlanmayotgan taom turlari mabjudligiga guvoh bo'ldik. Bu esa bizning bu maqalomizning aktual tema ekanligini ko'rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари.- Тошкент,1981.
2. Әлишер Навоий асарлари тилиниң изохли луғати.-Тошкент:Фан,1983.
3. Худаярова М. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили. Дисс...канд.филолог.фан. Тошкент,2010.
4. Икрамова Н.М. Узбекская кулинарная лексика. Ташкент, «Фан», 1989.
5. Plobbs.Urdu classiol and Englisen. London.1884.
6. Индийско-русский словарь.1953.
7. Ўзбек тилиниң изохли луғати. М.Рус тили,1981.Т.ІІ.

8. Юдахин К.К. Киргизско-русский словарь.-М.:1965.
9. Жданко Т.А. Этнография каракалпаков. Ташкент, 1980.
10. Диалектологический словарь татарского языка. Казан,1969.
11. Суюнчиев Х.И. Карачаево-балкарские и монгольские лексические параллели. Черкесск,1977.
12. Севортьян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Москва,1974.
13. Уразов Е. Ю. Жанубий Қарақолпоғистон ўзбек шевалари. Беруний –Турткул шева материаллари. Ташкент, 1978.
14. Ишаев А. Қарақолпоғистон ўзбек шевалари. Ташкент, 1977.
15. Нурова Ю. Ўзбек халқ паремаларининг этнолингвистик хусусиятлари . Дисс...канд.филолог.фан. Бухоро, Б.93. 2022.